

**ARAB TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISH JARAYONIDA
ELEKTRON FORMATIV BAHOLASH VOSITALARINING O'RNI**

Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin o'g'li
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasida dotsenti v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada til egasi bo'lmaganlarga arab tilini o'qitishda elektron formativ baholash vositalarining ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, formativ baholash talabalar bilim-ko'nikmalarini doimiy tekshirish, tushunish darajasini aniqlash, o'qitish metodikasini moslashtirish imkoniyatini berishi, Kahoot, Quizizz, Google Forms kabi interaktiv platformalardan foydalanish orqali talabalarning faolligi oshirilishi, o'qituvchi uchun tezkor va aniq natijalar taqdim etilishi hamda individual yondashuvni qo'llash uchun sharoit yaratilishi kabi jihatlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: formativ baholash, elektron baholash, arab tili, ikkinchi til, interaktiv platformalar, o'quv jarayoni

Аннотация. В данной статье рассматривается важность электронных инструментов формативного оценивания в преподавании арабского языка не носителям языка. Также проанализированы такие аспекты, как формативное оценивание позволяет постоянно проверять знания и навыки студентов, определять уровень понимания, адаптировать методику обучения, повышать активность студентов за счет использования интерактивных платформ, таких как Kahoot, Quizizz, Google Forms, предоставлять преподавателю быстрые и точные результаты, а также создавать условия для применения индивидуального подхода.

Ключевые слова: формирующее оценивание, электронное оценивание, арабский язык, второй язык, интерактивные платформы, учебный процесс.

Abstract. This article examines the importance of electronic formative assessment tools in teaching Arabic to non-native speakers. Also, such aspects as continuous assessment of students' knowledge and skills, determination of the level of understanding, the possibility of adapting teaching methods, increasing student activity through the use of interactive platforms such as Kahoot, Quizizz, Google Forms, providing quick and accurate results for the teacher, and creating conditions for applying an individual approach were analyzed.

Keywords: formative assessment, electronic assessment, Arabic language, second language, interactive platforms, learning process.

Kirish. Arab tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda baholashning samarali usullari doimo o'qituvchilar e'tibor markazida bo'lib kelgan. An'anaviy baholash tizimlari ko'pincha yakuniy natijaga yo'naltirilgan bo'lib, talabalar bilim darajasini faqat sinov yoki imtihon

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

natijalari orqali baholaydi. Shu bilan birga, talabalar o'qish jarayonida o'z xatolarini aniqlash va ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bu esa o'qitish jarayonida individual yondashuvni qo'llashni qiyinlashtirib, o'quv jarayonini samarali tashkil etishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, formativ baholash tushunchasi bugungi kunda o'qituvchilar va metodistlar uchun muhim vositaga aylangan. Formativ baholash talabalar bilim-ko'nikmalarini doimiy ravishda kuzatish, ularning tushunish darajasini aniqlash va o'qitish metodikasini talabalar ehtiyojiga moslashtirish imkonini beradi. So'nggi yillarda elektron platformalar, xususan, Kahoot, Quizizz, Google Forms kabi vositalar formativ baholash jarayonini sezilarli darajada osonlashtirdi. Bu vositalar nafaqat o'qituvchilarga tezkor va aniq natijalar olish imkonini beradi, balki talabalarni interaktiv o'quv jarayoniga jalb qiladi va ularni faol ishtirok etish undaydi. Shu nuqtai nazardan, elektron formativ baholash nafaqat o'quv samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilar orasida bilimlarni teng ravishda shakllantirishga ham yordam beradi. Buni arab tilini o'qitish borasida mamlakatimizning yetakchi oliy ta'lim muassasalari hisoblangan – O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va Oriental universitetida Kahoot, Quizizz va boshqa elektron platformalar yordamida formativ baholash sinovlarida ishtirok etgan talabalarning natijalari tahlili ham tasdiqlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. So'nggi o'n yilliklarda xorijiy tillar, jumladan ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda formativ baholash vositalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilganini qayd etish joiz. Masalan, Brown (2015) va McManus (2018) tadqiqotlarida Google Forms va Kahoot yordamida ingliz tili darslarida talabalar bilimini o'lchash va xatolarini aniqlash jarayoni tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotchilar elektron formativ testlar o'quvchilarning faolligini oshirishi, o'qituvchilarga real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini berishi va individual o'quv ehtiyojlariga moslashishga yordam berishiga ishonch hosil qilishgan. Shuningdek, turk, ispan va fransuz tillarini o'rgatishda ham Quizizz va Socrative kabi platformalar yordamida formativ baholash samaradorligi tekshirilgan. Biroq arab tilini ikkinchi til sifatida o'qitish sohasida bunday chuqur tahlillar hali yetarli emas. Aksariyat izlanishlar faqat grammatik testlar bilan cheklangan bo'lib, elektron platformalar yordamida talabalar bilimini doimiy baholash usullariga deyarli e'tibor qaratilmagan. Bu esa arab tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda o'quv jarayonining individual ehtiyojlarga moslashuvchanligini kamaytiradi.

Natijalar. Tadqiqot uchun O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va Oriental universiteti talabalari tanlangan bo'lib, ular bilan olib borilgan dars jarayonlarida formativ elektron baholash vositalaridan foydalanilgan. Sinovlar Kahoot, Quizizz va Google Forms platformalari orqali olib borildi. Talabalar soni jami 120 nafar bo'lib, har bir universitetdan 40 nafardan talaba ko'rsatkichi ajratib olindi. Sinov natijalarini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin:

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Universitet nomi	Platforma	O'rtacha ball	Maksimal ball	Minimal ball	Standart og'ish
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi	Kahoot	78.5	95	60	9.2
	Quizizz	80.1	96	62	8.7
	Google Forms	77.8	94	61	9.0
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	Kahoot	81.3	97	65	8.5
	Quizizz	82.6	98	67	7.9
	Google Forms	80.9	96	64	8.3
Oriental universiteti	Kahoot	76.7	92	58	10.1
	Quizizz	78.2	93	59	9.5
	Google Forms	75.9	91	57	10.0

Jadvaldan anglashiladiki, yuqori o'rtacha ball Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalarida Quizizz platformasida kuzatildi (82.6). Bu esa mazkur platformaning interaktiv va raqobatbardoshligi, samaradorligi yuqoriligini ko'rsatadi. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida mazkur platformadagi o'rtacha ball biroz oshgan (80.1) va standart og'ish (8.7) nisbatan barqaror. Oriental universitetida barcha platformalarda o'rtacha ball biroz pastroq (75.9–78.2) bo'lib, standart og'ish (9.5–10.1) talabalarning natijalari orasidagi tafovutni bildiradi. Demak, interaktiv platformalar (Kahoot, Quizizz) o'rtacha ballni oshirib, natijalarni yanada barqaror qiladi, Google Forms esa qulaylik jihatidan foydali bo'lsa-da, interaktivlik jihatidan nisbatan pastroq.

E'tiborlisi, 92% talaba Kahoot testlarini qiziqarli deb baholagan va 85%i darsga qatnashuvini oshirganini bildirgan. 88% talaba Quizizz platformasini interaktiv va raqobatbardosh deb topgan va 83% holatda darsga qatnashishiga rag'batlantirgan. Google Forms esa 80% talaba nazdida qulay bo'lib, 70% respondent platformani interaktiv deb baholagan.

Muhokama. Natijalari ko'rsatmoqdaki, elektron formativ baholash vositalari arab tilini chet til sifatida o'rganayotgan talabalar uchun samarali vosita sanaladi. Yuqoridagi tajribada ma'lum bo'ldiki, interaktiv platformalarda talabalar ishtiroki an'anaviy yozma testlarga nisbatan 15–20% yuqori bo'ladi. Masalan, Kahoot orqali olib borilgan

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

sinovlarda o'rtacha ball 78.5%, Quizizz orqali – 81.3%, Google Forms – 76.7% tashkil etdi. Bu raqamlar talabalarning elektron formatdagi baholashga bo'lgan motivatsiyasi va diqqatini oshirishga yordam berishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, talabalar qiziqishi Kahootda 92%, Quizizzda 88%, Google Formsda esa 80% bo'lib, interaktivlik va raqobat elementlari ishtirokni oshirishda muhim rol o'ynashi ayon bo'ladi. Mazkur natijalar ingliz tili va boshqa tillarni o'rgatishda olib borilgan tadqiqotlar bilan mos keladi: masalan, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda o'quvchilar interaktiv testlarda an'anaviy testlarga nisbatan 10–25% yuqori natija ko'rsatgani qayd etilgan (Musa & Abdullahi, 2022). Bundan tashqari, interaktivlik reytingi va o'rtacha ball o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud ($r = 0.87$). Ya'ni platforma qanchalik interaktiv bo'lsa, talabalarning natijalari shuncha yaxshi bo'ladi.

Xulosa. Amaliy jihatdan, mazkur kichik tadqiqotdan quyidagi tavsiyalar chiqarildi: elektron formativ baholash vositalarini o'quv jarayoniga muntazam kiritish, kichik bloklar va tez-tez testlar orqali bilimlarni mustahkamlash; talabalarni rag'batlantirish va interaktiv muhit yaratish uchun o'yin va raqobat elementlaridan foydalanish; test natijalarini individual ehtiyojlarga moslashtirish va pedagogik qarorlarni tezkor qabul qilish; arab tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda elektron baholash bo'yicha chuqur statistik tahlillarni olib borish va metodik bazani rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, elektron formativ baholash vositalari arab tilini chet til sifatida o'rgatishda samarali pedagogik yechim bo'lib, talabalar va o'qituvchilar uchun o'qitish va o'rganish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alasmari, A., & Albalawi, A. (2021). EFL students' and teachers' perceptions of Google Forms as a digital formative assessment tool. Arab World English Journal (AWEJ), 12(4), 203–218. <https://awej.org/wp-content/uploads/2021/07/10-1.pdf>
3. Bloom, B. S., Hastings, J. T., & Madaus, G. F. (1971). Handbook on formative and summative evaluation of student learning. McGraw-Hill.
4. Sotvoldiev, S. (2022). PRINCIPLES OF COMPOSITION OF SCIENTIFIC-CRITICAL TEXT OF IBN SAYYID'S DICTIONARY" AL-MUSALLAS. Thematics Journal of History, 8(1).
5. Сотволдиев, С. (2024). Редактирование переводов из арабской прессы: проблемы и решения. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 553-556. <https://doi.org/10.2024/48h0fh84>
6. Сотволдиев С.М. (2024). ЖАДИД МАТБУОТИНИНГ 1917-18 ЙИЛЛАРДАГИ ҲОЛАТИ: “ТУРК СЎЗИ” ГАЗЕТАСИ ПУБЛИЦИСТИКАСИ МИСОЛИДА. Экономика и социум, (1 (116)), 1346-1350.